

YENGIL SANOAT SOHASIDAGI DOLZARB MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

Maxmudov Xusanbek Azizbek o'g'li

Farg'ona politexnika intituti, talaba
+99897 416 70 70 *Husanboy0700@mail.ru*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada hozirgi kunda "Yengil sanoat" sohasidagi dolzarb muammolar to'g'risida keng to'xtalib o'tilgan va shu muammolarni oldini olish uchun ba'zi bir yechimlar berilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining mamlakatni rivojlantirish borasida ko'rsatib bergan yo'riqnomalar asosida Respublikamiz yengil sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni, iqtisodiyotini rivojlantirish, mahsulot sifati va raqobatbardoshligini oshirish uchun olib borilayotgan ilmiy izlanishlar natijalarini ommalashtirish, ishlab chiqarish va sanoat, muammolarini o'rganish va tahlil etishdan iboratdir.*

Kalit so'zlar: *Yengil sanoat, texnika, texnologiya, muammo, yechim, korxonalar, ishlab chiqarish.*

So'nggi yillarda respublikada yengil sanoatning to'qimachilik, tikuv-trikotaj, charm-poyabzal va mo'ynachilik tarmoqlarini rivojlantirish, ishlab chiqarilayotgan tayyor mahsulotlarning turlari va assortimentini kengaytirish, shuningdek, tarmoq korxonalarining investitsiya va eksport faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Ko'rilgan chora-tadbirlar respublikada ishlab chiqarilayotgan paxta tolasining 80 % dan ko'prog'ini va ip kalavani 45 % dan ko'prog'ini qayta ishlash bo'yicha quvvatlarni yaratish, shuningdek, 2018-yilda tayyor mahsulot eksport hajmini 1,6 milliard AQSh dollariga yetkazish imkonini berdi.

Charm-poyabzal va mo'ynachilik sohalarini rivojlantirish va eksport salohiyatini oshirish uchun berilgan imtiyozlar va preferensiyalar mahalliy tayyor charm ishlab chiqarish hajmini 6 % ga va krast bosqichidagi charm ishlab chiqarish hajmini 44 % ga oshirish imkonini yaratdi.

Bugungi kunda yengil sanoatning jadal va barqaror rivojlanishini ta'minlash, mahalliy xom ashyoni chuqur qayta ishlash orqali birinchi navbatda tashqi bozorlardaraqobatbardosh bo'lgan yuqori qo'shilgan qiymatga ega to'qimachilik, tikuv-trikotaj, charm-poyabzal va mo'ynachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash va kengaytirish, shuningdek, salohiyatli xorijiy investorlar jalb qilinishi rejalashtirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 16 sentyabrdagi "Yengil sanoatni yanada rivojlantirish va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4453 sonli Qarorida O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali yarim tayyor charmni olib chiqishda 2021 yilning 1 yanvaridan boshlab eksport qilinadigan mahsulot qiymatining 10 % imiqdorida yig'im undirilishi va O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasi orqalipaxta ip-kalavasi va trikotaj matoni olib chiqishda 2021 yil 1

yanvardan boshlab olibchiqiladigan har bir kilogramm ip-kalava uchun 0,01 AQSh dollari, 2022 yil 1 yanvardan olib chiqiladigan har bir kilogramm ip-kalava va trikotaj mato uchun 0,05AQSh dollari, 2023 yil 1 yanvardan — 0,1 AQSh dollari, 2025 yil 1 yanvardan — 0,2AQSh dollari miqdorida yig'im undirilishi belgilab qo'yilgan[1].

O'zbekiston Respublikasi Yengil sanoat ishlab chiqarish korxonalarida yangi texnika va texnologiyalar orqali tabiiy tola xom ashyosidan sifatli to'qima va noto'ima, trikotaj materiallar tayyorlash, jihozlarga texnik xizmat ko'rsatish va yigiruv-to'quv davomidagi ta'minoti uzluksizligini ta'minlash hamda zamonaviy texnika texnologiyalardan foydalanish va yo'qotishlarni kamaytirishga erishish, kafolatli, sifatli ishlab chiqarishning noan'anviy usullari samaradorligini oshirish muammolaridan iboratdir.

Shu bilan birga jahon bozorlaridagi raqobatning kuchayishi, texnologiyalarning rivojlanishi va xorijiy ishlab chiqaruvchilar tomonidan mahsulot ishlab chiqarish xarajatlarining kamaytirilishi ushbu sohalarni rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar ishlab chiqilishini talab etmoqda.

Yengil sanoat — xilma-xil xom ashyodan keng iste'mol mahsulotlari va buyumlari ichki chizimga ixtisoslashgan sanoat tarmoqlari majmui. Yengil sanoatda xom ashyoga ham dastlabki ishlov berish, ham tayyor mahsulot ichki chizimda amalga oshiriladi. Yengil sanoatda paxta, ipak, zigir, kanop, jut tolalari, hayvonlar terisi, juni, sun'iy tolalar, sun'iy charm xom ashyo sifatida foydalaniladi. Uning asosiy tarmoqlari to'qimachilik, tikuvchilik, ko'nchilik, mo'ynado'zlik, poyab-zal sanoatlari hisoblanadi. Yengil sanoat maq-sulotlari, shuningdek, mebelsozlik, aviatsiya, avtomobil, oziq-ovqat va sanoat tarmoqlarida, qishloq xo'jaligi, transport, sog'liqni saqlash va boshqa sohalarda ishlatiladi.

Yengil sanoat yirik fabrika industriyasining tarmog'i tarzida 18-asrning 2-yarmida barpo qilindi. Yengil sanoatning qadimiy tarmoqlaridan biri bo'lgan to'qimachilik sanoatida texnika taraqqiyoti to'qimachilik sanoatining kapitalistik manufaktura bosqichidan yirik mashinalashgan industriya bosqichiga o'tishi uchun baza yaratgan 18-asrdagi ulkan kashfiyotlar bilan bog'liq. Lekin qo'lda paxta va jundan ip tayyorlash va to'qish, charmdan poyabzal tikish uchun terini kayta ishlashning oddiy usullari Hindiston, Xitoy, Misr, O'rta Osiyoda mil. avval bir necha asr ilgari ma'lum bo'lgani tarixiy adabiyotlarda qayd etilgan va arxeologik topilmalar bilan tasdiqlangan. Hoz. O'zbekiston hududida 19-asrning oxiriga qadar xo'jalik taraqqiyoti xonaki, kosibchilik, hunarmandchilik ishlab chiqarishidan iborat edi. Sanoat usulida ishlab chiqarilgan kiyim-kechak, poyabzal, trikotaj mahsulotlari, gazmollar asosan Rossiyaning markaziy shaharlaridan olib kelingan, chetga, asosan Rossiyaga paxta tolasi, xom ipak, teri va boshqa xom ashyo turlari chiqarilgan[2].

Paxta va tolani qayta ishlash bo'yicha ko'p asrlik an'analarini saqlab kelayotgan mamlakatimiz yengil sanoati mustaqillik yillarida makroiqtisodiyot kompleksida munosib o'rin egalladi. Prezidentimiz rahnamoligida yaratilayotgan qulay sharoitlar, imtiyoz va preferensiyalar, mustahkam me'yoriy-huquqiy baza tarmoq korxonalariga salmoqli yutuqlarga erishish va rivojlanishning yangi marralariga chiqish imkonini berayotir.

Bugungi kunda yengil sanoat tarmog'ining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 3,8 %, sanoat mahsulotlari hajmida 26,2 %, nooziq-ovqat iste'mol tovarlari ishlab chiqarishda 44 %dan ortiqni tashkil etayotir. Ayni paytda paxta tolasini mamlakatimizda qayta ishlash hajmi

sezilarli oshdi. Chunonchi, bu ko'rsatkich 1991-yilda 7 %ni tashkil etgan bo'lsa, 2014-yilda 35 %gacha yetdi.

Chet el investitsiyalari va texnologiyalarini jalb etish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash, milliy tajriba va umume'tirof etilgan xalqaro me'yorlar asosida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan puxta siyosat yuqori ishlab chiqarish ko'rsatkichlariga erishish kafolati bo'lib xizmat qilmoqda. Buning samarasida mustaqillik yillarida tarmoqqa 2,2 milliard dollardan ortiq sarmoya jalb etildi va 180 dan ziyod yirik investitsiya loyihasi amalga oshirildi.

Qo'qon to'qimachilik kombinati negizida tashkil etilgan "Indorama Qo'qon tekstil" qo'shma korxonasi muhim loyihalardan biridir. Yiliga 29 ming tonna kalava ishlab chiqarish quvvatiga ega ushbu loyihaning qiymati 110 million dollarni tashkil qiladi. Xorazm viloyatida "O'zteks" korxonalar guruhi tomonidan "Svis Kapital" (Shveytsariya) kompaniyasi bilan hamkorlikda tashkil etilgan, umumiy qiymati 50 million dollardan ortiq bo'lgan va yiliga 12 ming tonna kalava ishlab chiqarish quvvatiga ega korxonaga ham keng ko'lamli loyihalardan biridir.

Sobiq "O'zbektekstilmash" ishlab chiqarish birlashmasi negizida Shveytsariyaning "Mashinefabrik Riter AG" kompaniyasi bilan hamkorlikda tashkil etilgan "Riter O'zbekiston" xorijiy korxonasi tarmoqni rivojlantirishda salmoqli yutuq bo'ldi. Ushbu korxonada lentali, taroqli va halqali yigiruv mashinalari ishlab chiqarilmoqda. Buning samarasida mamlakatimizda zamonaviy to'qimachilik mashinasozligi qayta tiklandi.

Shu tariqa bugungi kunda "O'zbekengilsanoat" aksiyadorlik jamiyati korxonalarining yillik ip yigirish quvvati 450 ming tonna, to'qimachilikda 296 million kvadrat metr mato, trikotaj polotnosi ishlab chiqarishda 90 ming tonna, tikuvchilik-trikotaj yo'nalishida 270,2 million dona mahsulotni tashkil qilmoqda.

Tarmoqqa zamonaviy texnologiyalarning joriy etilayotgani mahsulot eksportida o'z aksini topmoqda. 2014-yil yakunlariga ko'ra, tarmoqdagi eksport ko'rsatkichi bir milliard dollarga yetdi. Bugungi kunda yengil sanoat mahsulotlari dunyoning 50 mamlakatiga eksport qilinmoqda.

"O'zbekengilsanoat" aksiyadorlik jamiyati tizimida Vatanimiz mustaqilligining 24-yilligi arafasida umumiy qiymati 99 million dollarlik 18 yangi korxonaga ishga tushirildi. 43,1 million dollarlik eksport salohiyatiga ega ushbu korxonalarda mingdan ziyod yangi ish o'рни yaratildi.

To'qimachilik sanoati, tayyor gazlamalar va kiyimlar tayyorlashni yanada rivojlantirish, shuningdek, "O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati bilan hamkorlikda sintetik tola va ip ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish "O'zbekengilsanoat" davlat aksiyadorlik kompaniyasining ustuvor yo'nalishlaridandir[3].

Hozirgi davrda O'zbekiston Yengil sanoati ko'p tarmoqli industrial majmua bo'lib, uning tarkibida paxta tozalash zavodlari, to'qimachilik, trikotaj, pillakashlik, shoyi to'qish, tikuvchilik, ko'n-poyabzal, gilamchilik, chinni-fayans buyumlari va attorlik mollari ichki chizim sohalarida 150 ga yaqin korxonaga bor. Shulardan 14 tasi 1994—2000-yillarda chet'el kapitali ishtirokida tashkil qilingan qo'shma korxonalaridir [(bu korxonalar tarmoqda ishlab chiqarilgan umumiy mahsulot hajmining 20,6% ni, eksportga

chiqarilgan mahsulot hajmining 88,1% ni beradi (2000)]. Respublika sanoat mahsuloti umumiy hajmida Yengil sanoat hissasi eng katta salmoqqa ega va 2000-yilda 20,1% ni tashkil qildi (1995-yilda 19%). Mustaqillik yillarida yengil sanoat mamlakatimiz makroiqtisodiy kompleksida mustahkam o‘rin egalladi. Chet el investitsiyalari va zamonaviy texnologiyalarni keng jalb etish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan samarali loyihalar ishlab chiqarish sohasida yuqori ko‘rsatkichlarga erishishni ta‘minlayotir. Mustaqillik yillarida tarmoqqa 2,5 milliard dollardan ortiq sarmoya jalb etilib, 200 dan ziyod yirik investitsiya loyihasi hayotga tatbiq etildi[4].

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, mamlakatimizda bu sohani yanada rivojlantirish maqsadida sifat o‘zgarishlarini ta‘minlashga qaratilgan islohotlar olib borilmoqda. Jumladan, to‘xtab qolgan eski ip-yigiruv kombinatlari o‘rniga zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan xorijiy va qo‘shma korxonalar tashkil etilmoqda. Ko‘plab tarmoq korxonalari modernizatsiya qilindi, ularda jahon andozalari darajasidagi raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarilishi yo‘lga qo‘yildi. Tarmoqda faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida berilgan imtiyoz va preferensiyalar ularning tashqi bozorda mustahkam o‘rin egallashiga imkon yaratmoqda.

Respublikamizda to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini yanada rivojlantirish uchun zaruriy huquqiy baza va qulay sharoitlar shakllantirilgan va ishlab chiqarish hajmini oshirish imkonini beruvchi qo‘shimcha mablag‘lar jalb etish, ishlab chiqarish jarayonini diversifikatsiya qilishga katta e‘tibor qaratilgan.

Yengil sanoat korxonalarida sifatni boshqarish mexanizmini takomillashtirish, xususan, tarmoq korxonalarida “Sifatni boshqarish va monitoring qilish” bo‘yicha ishchi guruhning tarkibi va vazifalarini takomillashtirish borasida ishlar olib borilmoqda.

Bugungi kunda yengil sanoat tarmoqlari jadal rivojlanib bormoqda. Bu tarmoqlarda xususiy sektorning tashabbuslari va yangi loyihalarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha barcha choralar ko‘rilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 16 sentyabrdagi “Yengil sanoatni yanada rivojlantirish va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4453 sonli Qarori.

2. Мартин Г., Хетрик С. “Корпоративные репутации, брендинг и управление персоналом”. Учебник. М.: Группа ИДТ, 2013. –С.333.

3. <https://uza.uz/oz/posts/yengil-sanoatda-ishlab-chiqarish-hajmi-oshmoqda-03-11-2015>

4. Nishanova L. N., Umarova M. N., Usmonov A. A., “Yengil sanoat korxonalarini qayta jihozlash, rekonstruksiyalash dapotokusulidan 332 foydalanish yo‘llari”. “To‘qimachilik muammolari” ilmiy-texnik jurnali. ISSN 2010 -62 -62